



Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-aprel)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi,
mlrd. so'm, o'sish sur'ati % da



- B** Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** Ishlab chiqaradigan sanoat
- D** Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-aprel oylarida respublika korxonalaridan tomonidan 4433,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 103,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 86,4 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 5,6 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 42,4 % ga o'sishi xizmat qildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda – 56,9 % ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 79,4 % ga pasayish kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 26,7 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini tashkil etdi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


O'tgan yilning shu davriga nisbatan ohak tosh qazib olish - 75,8 % ga chaqiq tosh - 21,0 % ga, qattiq holdagi tuz va toza natriy xlorid - 13,1 % ga va tabiiy qum - 0,4 % ga oshgan bo'lsa, gaz kondensati - 5,8 % ga hamda tabiiy gaz qazib olish - 4,5 % ga pasaygan.



| Sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-aprel | 2020-yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|--|--------------------------|--------------------------|--------------|
| Ohak tosh , <i>ming t.</i> | 58,4 | 102,7 | 44,3 |
| Tabiiy qum, <i>ming t.</i> | 115,9 | 116,4 | 0,5 |
| Tabiiy gaz, <i>mln. kub.m.</i> | 965,5 | 922,3 | - 43,2 |
| Gaz kondensati, <i>ming t.</i> | 39,4 | 37,1 | -2,3 |
| Chaqiq tosh, <i>ming t.</i> | 71,9 | 87,0 | 15,1 |
| Qattiq holdagi tuz va toza natriy xlorid, <i>ming t.</i> | 47,7 | 53,9 | 6,2 |


Ishlab chiqaradigan sanoat

2020-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3831,5 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,4 % ini tashkil etdi.




**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,6 % ni (2019-yil yanvar-aprel oylarida - 1,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 65,5 % (66,8 %), o'rta-quyi texnologiyali - 4,6 % (3,7 %) va quyi texnologiyalisi - 29,3 % (27,7 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 56,8 % (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 135,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 12,6 % (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 70,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 11,9 % (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,0 %) ni, boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,8 % (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,6 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati




2020-yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 98,1 ming tonna portlandsement (2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 198,7 % ga o'sgan), 2,8 ming tonna tozalangan gurich (68,4%) 31,1 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (16,5 %), 67,0 ming tonna dinatriy karbonati (6,3 %) yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-aprel | 2020-yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|--------------------------------|-----------------------|-----------------------|-----------|
| Paxta tolasi, ming t. | 22,4 | 18,3 | -4,1 |
| Aroq, ming litr 100 % li spirt | 1342,5 | 1078,4 | -264,1 |
| Paxtadan yigirilgan ip, t. | 717 | 3631 | 2914 |
| Polietulen, ming t. | 120,2 | 122,4 | 2,2 |
| Polipropilen, ming t. | 31,6 | 33,8 | 2,2 |

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni konditsiyalash**



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 556,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,6 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 42,4 % ga oshganligi kuzatildi.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-aprel | 2020-yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|--|-----------------------|-----------------------|-----------|
| Elektroenergiya, mln. kVt/s | 1375,5 | 1416,9 | 41,4 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 24,6 | 17,5 | -7,1 |
| Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm | 31859,7 | 38917,2 | 7057,5 |



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 19,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar-aprel | 2020-yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|--------------------------|--------------------------|--------------|
| Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm | 1301,4 | 1877,6 | 576,2 |
| Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm | 1461,6 | 3723,2 | 2261,6 |
| Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm | 9744,6 | 11388,5 | 1643,9 |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar - 154,7 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 44,3 % ga hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar - 16,9 % ga oshganligi kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 679,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 8,5 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 15,3 % ni tashkil etdi.



2019-yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020-yil yanvar-aprel oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 65,2 % dan 64,3 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 5,8 % (2019-yil yanvar-aprel oylarida 7,8 %) ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 22,0 % ni, shuningdek, Xo'jayli tumani 11,0 % ni, To'rtko'l tumani 9,2 % ni, Beruniy tumani 8,6 % ni Qonliko'l tumani 7,1 % ni, Qo'ng'iro't hamda Chimboy tumanlari 6,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (108,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Chimboy (179,6 %), Mo'ynoq (166,9 %), Taxtakopir (138,1 %), Qonliko'l (128,0 %), To'rtko'l (109,2 %) hamda Nukus tumanlarida (108,8 %) qayd etildi.



**Shahar va tumanlar iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar-aprel oylarida)**

| | Mrd. so'm | Jamiga nisbatan ulushi, % da | 2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da |
|--------------------------------------|--------------|------------------------------|---|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 679,5 | 100 | 108,5 |
| Amudaryo | 39,6 | 5,8 | 100,0 |
| Beruniy | 58,7 | 8,6 | 100,0 |
| Bo`zatov | 2,4 | 0,4 | 104,3 |
| Qonliko'l | 48,5 | 7,1 | 128,0 |
| Qorao'zak | 12,5 | 1,8 | 105,8 |
| Kegayli | 12,9 | 1,9 | 100,1 |
| Qo'ng'iro't | 43,0 | 6,3 | 100,5 |
| Mo'ynoq | 13,3 | 2,0 | 166,9 |
| Nukus | 12,8 | 1,9 | 108,8 |
| Taxiatosh | 23,2 | 3,4 | 101,8 |
| Taxtako'pir | 34,4 | 5,1 | 138,1 |
| To'rtko'l | 62,2 | 9,2 | 109,2 |
| Xo'jayli | 74,4 | 11,0 | 100,0 |
| Chimboy | 42,9 | 6,3 | 179,6 |
| Shumanay | 12,8 | 1,9 | 106,6 |
| Ellikqal'a | 36,3 | 5,3 | 100,0 |
| Nukus sh. | 149,6 | 22,0 | 100,0 |

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 21,2 %, shuningdek, Xo'jayli tumani 9,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Mo'ynoq (172,9 %), Chimboy (153,6 %), Qonliko'l (145,1 %) va Taxtako'pir (144,7 %) tumanlarida qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar-aprel oylarida)**

| | Mrd. so'm | Jamiga nisbatan ulushi, % da | 2019-yil yanvar-aprel oylariga |
|--------------------------------------|------------------|-------------------------------------|---------------------------------------|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 436,7 | 100 | 121,6 |
| Amudaryo | 25,8 | 5,9 | 100,8 |
| Beruniy | 33,7 | 7,7 | 95,6 |
| Bo'zatov | 1,8 | 0,4 | 104,3 |
| Qonliko'l | 39,6 | 9,1 | 145,1 |
| Qorao'zak | 7,5 | 1,7 | 106,4 |
| Kegayli | 8,7 | 2,0 | 101,6 |
| Qo'ng'iro't | 29,7 | 6,8 | 101,4 |
| Mo'ynoq | 8,1 | 1,9 | 172,9 |
| Nukus | 7,3 | 1,7 | 109,1 |
| Taxiatosh | 10,6 | 2,4 | 104,3 |
| Taxtako'pir | 28,2 | 6,4 | 144,7 |
| To'rtko'l | 41,9 | 9,6 | 116,0 |
| Xo'jayli | 42,6 | 9,8 | 99,6 |
| Chimboy | 26,6 | 6,1 | 153,6 |
| Shumanay | 8,5 | 1,9 | 105,3 |
| Ellikqal'a | 23,6 | 5,4 | 113,7 |
| Nukus sh. | 92,5 | 21,2 | 86,1 |


Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 23,5 %, shuningdek, Xo'jayli 13,1 % ni, Beruniy tumani 10,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida respublika o'sish sur'ati (111,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Chimboy (247,6 %), Mo'ynoq (158,2 %), Taxtako'pir (114,4 %) tumanlarida hamda Nukus (135,3 %) shahrida qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar-aprel oylarida)**

| | Mrd. so'm | Jamiga nisbatan ulushi, % da | 2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da |
|--------------------------------------|------------------|-------------------------------------|--|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 242,8 | 100,0 | 111,2 |
| Amudaryo | 13,8 | 5,7 | 98,5 |
| Beruniy | 25,0 | 10,3 | 106,8 |
| Bo'zatov | 0,6 | 0,3 | 104,3 |
| Qonliko'l | 8,9 | 3,6 | 83,8 |
| Qorao'zak | 5,0 | 2,1 | 105,0 |
| Kegayli | 4,2 | 1,7 | 97,4 |
| Qo'ng'iro't | 13,3 | 5,5 | 98,6 |
| Mo'ynoq | 5,2 | 2,1 | 158,2 |
| Nukus | 5,5 | 2,2 | 108,2 |
| Taxiatosh | 12,6 | 5,2 | 99,7 |
| Taxtako'pir | 6,2 | 2,6 | 114,4 |
| To'rtko'l | 20,3 | 8,4 | 97,4 |
| Xo'jayli | 31,8 | 13,1 | 100,4 |
| Chimboy | 16,3 | 6,7 | 247,6 |
| Shumanay | 4,3 | 1,8 | 109,3 |
| Ellikqal'a | 12,7 | 5,2 | 81,5 |
| Nukus sh. | 57,1 | 23,5 | 135,3 |



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2505,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 56,5 % ni tashkil etdi.




**Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar va tumanlar kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

| | 2020-yil yanvar-aprel mlrd. so'm | Fizik hajm indeksi, % da |
|--------------------------------------|---|-------------------------------------|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 4433,4 | 103,0 |
| Amudaryo | 138,1 | 100,5 |
| Beruniy | 94,4 | 90,6 |
| Bo`zatov | 42,8 | 104,2 |
| Qonliko'l | 109,0 | 107,6 |
| Qorao'zak | 60,9 | 117,1 |
| Kegayli | 99,1 | 100,0 |
| Qo'ng'iro't | 78,4 | 101,0 |
| Mo'ynoq | 31,3 | 106,4 |
| Nukus | 86,0 | 108,2 |
| Taxiatosh | 498,4 | 114,5 |
| Taxtako'pir | 51,5 | 103,7 |
| To'rtko'l | 125,5 | 108,3 |
| Xo'jayli | 162,3 | 104,2 |
| Chimboy | 60,7 | 103,6 |
| Shumanay | 24,6 | 124,0 |
| Ellikqal'a | 85,2 | 101,4 |
| Nukus sh. | 2685,2 | 103,1 |



Qoraqalpo'giston Respublikasi ishlab chiqarish hajmida shahar va tumanlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da




Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 60,6 %), Taxiato'sh (11,2 %) hamda Xo'jayli (3,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Shumanay (0,5 %) hamda Mo'ynoq (0,7 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.


Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, Shumanay (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 124,0 %), Qarao'zak (117,1 %), Taxiato'sh (114,5 %), To'rtko'l (108,3 %) hamda Nukus (108,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Shahar va tumanlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da)



**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati**
(2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da)

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati
(2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da)



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Chimboy (2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 138,1 %), Mo'ynoq (166,9 %), Nukus (108,8 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (8383,3 ming so'm), Taxiatosh (6744,7 ming so'm) tumanida o'rtacha Qoraqalpog'iston Respublikasi darajasi ko'rsatkichidan (2332,0 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 357,4 ming so'm bo'lgani holda Nukus shahrida – 467,0 ming so'mni, Qonliko'l tumanida – 951,0 ming so'mni, Taxtako'pir tumanida – 857,2 ming so'mni, Xo'jayli tumanida – 605,9 ming so'mni, Mo'ynoq tumanida – 416,2 ming so'mni tashkil etdi.


**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
(2020-yil yanvar-aprel oylarida, ming so'm)

| | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
|--------------------------------------|---------------------|-----------------------|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 2332,0 | 357,4 |
| Amudaryo | 692,4 | 198,6 |
| Beruniy | 492,5 | 305,9 |
| Bo`zatov | 1979,4 | 112,9 |
| Qonliko'l | 2137,9 | 951,0 |
| Qorao'zak | 1154,2 | 237,6 |
| Kegayli | 1366,4 | 177,3 |
| Qo'ng'iro't | 602,5 | 330,3 |
| Mo'ynoq | 981,6 | 416,2 |
| Nukus | 1709,7 | 254,4 |
| Taxiatosh | 6744,7 | 314,0 |
| Taxtako'pir | 1285,1 | 857,2 |
| To'rtko'l | 584,5 | 290,0 |
| Xo'jayli | 1321,3 | 605,9 |
| Chimboy | 539,9 | 382,1 |
| Shumanay | 438,3 | 227,3 |
| Ellikqal'a | 534,7 | 227,8 |
| Nukus sh. | 8383,3 | 467,0 |



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020-yil yanvar-aprel oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 769,9 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 17,4 % ni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Mo'ynoq, Shumanay va Ellikqal'a tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Amudaryo tumanida (82,5 %), Qo'ng'iro't tumanida (65,0%), Chimboy tumanida (57,9 %) kuzatildi.

Respublikamiz shahar va tumanlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Nukus shahar (6,8 %), Bo'zatov va Taxiato'sh (9,0 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Qoraqalpog'iston Respublikada faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda respublikada 2380 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1001 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 42,1 %) Nukus shahriga 507 tasi (21,3 %), To'rtko'l tumaniga 268 tasi (11,3 %), Beruniy tumaniga 226 tasi (9,5 %) to'g'ri kelmoqda.



2020-yil yanvar-aprel oyida respublikada 199 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 110 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 55,3 %) Nukus shahrida 39 tasi (19,6 %), To'rtko'l tumanida 26 tasi (13,1 %), Ellikqal'a tumanida 25 tasi (12,6 %) hamda 20 tasi (10,1 %) Amudaryo tumanida tashkil etildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasi sanoat
statistikas bo'limi Tel.: (61) 222-75-87